

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliyev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari	67
---	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

C

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАЩИТЫ ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE SIGNIFICANCE OF EDUCATION IN PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN UZBEKISTAN

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich¹

¹Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich

–Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual
mulk huquqi kafedrası dotsenti v.b., yu.f.f.d. (PhD)

Аннотация

Мақоллада bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqi himoyasining holati va jarayonlari, xususan bunda ta'limning o'rni xususida so'z boradi. Maqolada intellektual mulk bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish nafaqat keng jamoatchilikni, balki tegishli davlat organlari va muassasalari mutaxassislarini ham qamrab olinishi haqida aytib o'tilgan. SHuningdek, intellektual mulkka bo'lgan hurmat ruhini shakllantirish, bu faqatgina huquqni ta'sirchan vosita sifatida qo'llash bilan emas, balki bu jarayon o'qitish, xabardor qilish va aholi o'rtasida hurmat ruhini shakllantirishda qo'llab kelinayotgan mexanizmlarni o'zgartirishni ham talab etishligiga doir jihatlar yoritilgan. Intellektual mulkka bo'lgan hurmat ruhini shakllantirish, bu faqatgina huquqni ta'sirchan vosita sifatida qo'llash bilan emas, balki bu jarayon o'qitish, xabardor qilish va aholi o'rtasida hurmat ruhini shakllantirishga bo'lgan qo'llab kelinayotgan mexanizmlarni o'zgartirishlar haqida xulosalar qilingan.

Аннотация

В статье говорится о состоянии и процессах защиты авторских прав в Узбекистане на сегодняшний день, в частности, о роли образования в этом. В статье отмечается, что повышение правовой грамотности в сфере интеллектуальной собственности охватывает не только широкую общественность, но и специалистов соответствующих государственных органов и учреждений. Также подчеркивается, что формирование духа уважения к интеллектуальной собственности происходит не только с использованием права как действенного инструмента, но и что этот процесс требует обучения, информирования и изменения поддерживаемых механизмов формирования духа уважения среди населения. Формирование уважения к интеллектуальной собственности — это не только использование закона как эффективного инструмента, но и обучение, информирование и изменение поддерживаемых механизмов формирования уважения среди населения.

Abstract

The article renders the information on the state and processes of copyright protection in Uzbekistan today, in particular, about the role of education in this. The article notes that increasing legal literacy in the field of intellectual property covers not only the general public, but also specialists from relevant state bodies and institutions. It is also emphasized that the formation of the spirit of respect for intellectual property occurs not only with the use of law as an effective tool, but also that this process requires training, information and changes in the supported mechanisms for the formation of the spirit of respect among the population. Building respect for intellectual property is not only about using the law as an effective tool, but also about training, informing and changing the supported mechanisms for building respect among the population.

Kalit so'zlar: intellektual mulk huquqi, ta'lim, mualliflik huquqi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, huquqiy savodxonlik

Ключевые слова: право интеллектуальной собственности, образование, авторское право, Всемирная организация интеллектуальной собственности, правовая грамотность.

Key words: intellectual property law, education, copyright, World Intellectual Property Organization, legal literacy.

KIRISH

Intellektual mulk bugungi kunda so'zsiz har bir mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lish bilan birga, jahonda mamlakatning ijobiy imidjini oshirishda ham muhim o'rin tutishligi sir emas. Zero bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi xalqaro indeks va reytinglardagi davlatlarning tutgan o'rni investitsiya oqimining kirib kelishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ko'rsatkichlardagi asosiy e'tibor intellektual mulkka bo'lgan huquqlar himoyasi bilan bevosita bog'liqdir. Bunda eng avvalo muallif va huquq egalari intellektual mulk ob'ektlarigi qonuniy huquq hamda manfaatlarini himoyasini ta'minlash bilan birga ularni tijoratlashirish ham dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatimiz tomonidan jahon iqtisodiy munosabatlari (Jahon savdo tashkiloti, Yevro-Osiyo iqtisodiy ittifoqi)ga integratsiyalashuv siyosati jadallik bilan olib borilayotgan bugungi kunda intellektual mulk himoyasi bilan bog'liq masalalar asosiy o'ringa chiqib kelmoqda.

Intellektual mulk siyosatini yuritishda yuqoridagi ikki jihatni samarali yuritishni ta'minlash O'zbekiston uchun juda muhim sanaladi. Umuman olganda, so'nggi yillardagi mamlakatimizdagi asosiy muammo bu yaratilayotgan ixtirolarni tijoratlashirish jarayonlariga jadallik bilan joriy etish hamda ularga nisbatan innovatsiya maqomini berish, ijodiy faoliyat bo'lgan mualliflik asarlaridan tijorat maqsadlarida

samarali foydalanishdan iboratdir. Albatta yuqoridagi masalalar hamda intellektual mulk yo'nalishidagi boshqa muammolarni hal etishda texnik himoya vositalari bilan birga yuridik soha bo'yicha ham malakali mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish dolzarb ahamiyatga egadir. Ushbu masalalarni hal etishda intellektual mulkka oid huquqiy savodxonlikni oshirish ham dolzarb masalalardan biriga aylangan. Intellektual mulkka bo'lgan hurmat ruhini shakllantirish, bu faqatgina huquqni ta'sirchan vosita sifatida qo'llash bilan emas, balki bu jarayon o'qitish, xabardor qilish va aholi o'rtasida hurmat ruhini shakllantirishga bo'lgan qo'llab kelinayotgan mexanizmlarni o'zgartirishni ham talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Intellektual mulk bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish nafaqat keng jamoatchilikni, balki tegishli davlat organlari va muassasalari mutaxassislari ham qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir. Zero, sohaga taalluqli vazirlik va idoralar xodimlarini bu boradagi huquqiy bilimlarini oshirmasdan turib, ushbu masalani keng jamoatchilikka tatbiq etish o'zining ijobiy natijasini bermasligi mumkin.

Agarda xorijiy mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, ularda intellektual mulk bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi, xususan uning tushunchasi va unga bo'lgan hurmatni shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalari yoki umumta'lim maktablaridan boshlanishini ko'rishimiz mumkin.

Shunisi ahamiyatliki, intellektual mulk jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

- aniq, tabiiy va texnika fanlari, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi yo'nalishi – intellektual mulkning *ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari* bo'yicha;
- adabiyot, san'at, ijod, axborot texnologiyalari (kino, musiqa, teatr v.b.) yo'nalishi – intellektual mulkning *mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, elektron dasturiy ta'minot vositalari* bo'yicha;
- tadbirkorlik va biznes yo'nalishi – intellektual mulkning *tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, firma nomlari, domen nomlari* bo'yicha;

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan intellektual mulkka bo'lgan hurmatni oshirish va mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan BIMT a'zo-mamlakatlarda intellektual mulk rivojlanishi bo'yicha qabul qilinadigan turli dastur va strategiyalarda asosan yoshlar o'rtasida intellektual mulkka nisbatan hurmat ruhini keng targ'ib etish bo'yicha turli kompaniya va tadbirlarni o'tkazishda doimo o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda. Masalan, BIMT Koreya Respublikasi Madaniyat, turizm va sport vazirligi bilan hamkorlikda "Respect for Copyright" (<https://respectforcopyright.org>), Yaponiya patent idorasi bilan esa "Respect for Trademarks" (<https://respectfortrademarks.org/>) dasturlarini ishga tushirgan bo'lib, ushbu dasturlar ta'lim muassasalarining barcha bo'g'indagi turli toifadagi o'qituvchilari uchun o'zida muhim ma'lumotlarni mujassamlashtirgan [1].

Mazkur platformalar, shuningdek yoshlarni mualliflik huquqi va tovar belgilari haqidagi dastlabki bilimlarini oshirishga qaratilgan ta'lim resurslari bilan boyitilgan bo'lib, ularning mazmun-mohiyati yoshlarda intellektual mulkka hurmat ruhini shakllantirishga qaratilgan

Yuqorida ta'kidlanganidek, BIMT intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish jarayonida intellektual mulkka hurmat bo'yicha quyidagi maqsadli yo'nalishlarni taklif etib kelmoqda:

- intellektual mulk bo'yicha o'quv dasturlarini o'zgartirish;
- kontrafakt kontentga kirishni ta'qiqlashga qaratilgan texnik choralarni joriy etish;
- huquqiy ongni oshirishga qaratilgan aniq va maqsadli yo'naltirilgan tadbirlar.

BIMTning tarkibiy bo'linmalari qatoridan o'rin olgan Huquqlar himoyasi maslahat kengashi (Advisory Committee on Enforcement) 2002 yilda tashkilotning Bosh Assambleyasi tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, mazkur kengash tomonidan intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni himoya qilish va uni texnik ta'minotini yaxshilash barobarida, a'zo-mamlakatlar o'rtasida mazkur huquqqa nisbatan hurmatni mustahkamlash bo'yicha ham ishlarni olib boradi [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Intellektual mulkni o'qitish – bu oson bo'lmagan o'quv jarayonidir. Intellektual mulk o'zida nafaqat patent huquqi, mualliflik huquqi, tovar belgisi kabi asosiy jihatlarni qamrab olgan, balki unda insofsiz raqobat, reklama, kiber huquq kabi turdosh yo'nalishlar ham mavjud. Bundan tashqari, intellektual mulkdan o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun nazariy bilimlarni o'zi yetarli emas. Bunda albatta amaliy ish tajriba va ko'nikmalar bo'yicha ham salohiyat bo'lishi lozim. Masalan, patentga talabnoma tuzi va topshirish o'ziga xos qiyin bo'lib, bu shaxsdan tor doiradagi (spetsifik) bilimlarni ham talab etib, shu nuqtai nazardan sohadagi vakolatli organda yoki mustaqil mutaxassis (patent vakili, ekspert) sifatida faoliyat yuritganlik fakti muhim sanaladi.

Shuni aytib o'tish lozimki, Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan respublikada birinchilardan bo'lib, intellektual mulk sohasida kadrlarni tayyorlash va mazkur yo'nalishdagi fanlarni oliy yuridik ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. BMT va Intellektual mulk agentligi o'zaro hamkorligida 2018 yilda Toshkent davlat yuridik universitetida Intellektual mulk huquqi kafedrası tashkil etildi. E'tiborli jihati hozirda universitetda aynan intellektual mulk sohasida magistrnlarni tayyorlashga qaratilgan alohida mutaxassislik ham ochilgan. Yuqorida aytilganidek, intellektual mulkni ham nazariy ham amaliy jihatdan bilish lozim. SHu maqsadda Toshkent davlat yuridik universitetining Intellektual mulk huquqi kafedrası tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk departamentida Amaliy huquqshunoslik kafedrası faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari ma'ruza, seminar va sayyor dars mashg'ulotlarini olib borish, talabalar amaliyoti va stajirovkasini tashkil etish hamda o'quv va ilmiy tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bundan tashqari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham mualliflik huquqi yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari mavjud.

Muammoli jihati shundaki, *birinchidan* yuqoridagi oliy ta'lim muassasalarida ko'proq urg'u mualliflik huquqi va patent huquqining nazariy jihatlariga qaratilgan bo'lib, sanoat mulki yo'nalishlariga kiruvchi ixtiro, foydali model, sanoat namunasi bilan bog'liq jihatlar chetda qolib ketmoqda. Bunda o'qituvchidan aynan texnik yo'nalish bilan birga, intellektual mulk sohasidagi vakolatli organning harakatlari bo'yicha jarayonlarni yaxshi biladigan mutaxassis bo'lish talab etiladi. *Ikkinchidan*, intellektual mulk doimiy rivojlanishda bo'lib keladi. Yangi intellektual mulk ob'ektlari paydo bo'lishi bilan ularning muhofaza qilish yoki zamon taraqqiyoti bilan intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanishning huquqiy doirasining qamrovi ham o'zgarib boradi. Bunga radio, televideniya yoki internet tarmoqlarining paydo bo'lishi bilan ularda mualliflik huquqi ob'ektlaridan foydalanishni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Bu yerda yana bir jihat shundaki, sohadagi o'zgarishlar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish balki yangi o'quv adabiyotlar yaratish va o'qitish usullarini hamda yangi kurslarni yuritish bilan ham bog'liqdir. *Uchinchidan*, huquq tizimi va qoidalari doimiy ravishda o'zgarib, jamiyat hayotiga moslashib bormoqda. SHu sababli ham intellektual mulk siyosatini yuritishga doir huquqiy tizimlarni hamda xalqaro hujjatlar normalarini to'g'ri tushunishlik va ularni bilishlik muhim sanaladi. Xususan, ommaviy huquq intellektual mulk ob'ekti ko'proq jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak degan nazariyani ilgari surib, bu anglo-sakson huquq oilasi tarkibiga kiradi. Xususiy (fuqarolik) huquq esa bunga alohida mulk sifatida qarab, muallif (huquq egasi)ning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Bugungi globalizatsiya, internetning keng qamrovda ishlatilishi hamda xalqaro savdo aloqalarini oshishi natijasida intellektual mulkka doir bilimlarni o'zlashtirish hamda oxirgi jarayonlardan xabardor bo'lishlik talab etiladi.

Intellektual mulk sohasini rivojlantirish mamlakatimizning jahon integratsiyasidagi asosiy omil ekanligidan kelib chiqib, intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida joriy yilning 28 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4965-son qarori qabul qilinib, ushbu qarorda:

-intellektual mulk sohasiga oid fanlarni kadrlar tayyorlash tizimiga, jumladan respublika ta'lim tashkilotlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarida bosqichma-bosqich joriy etish;

-intellektual mulk sohasiga oid fanlarni kadrlar tayyorlash tizimiga joriy etishning birinchi bosqichida, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarida, xususan, ishlab chiqarish va texnik, qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi ta'lim yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajriba asosida hamda yosh avlod orasida ijodkorlarning mehnatiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan intellektual mulk fanlari joriy etiladi va ular bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda sohada faoliyat olib boruvchi amaliyotchilar ishtirok etishi ta'minlanish;

-oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-oliy ta'lim tizimida "Patentshunoslik" (bakalavr) yo'nalishini tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti, Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari uchun bugungi kunda o'ta zarur bo'lgan intellektual mulk sohasidagi kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish;

-oliy ta'lim muassasalari va tarmoq tadqiqot institutlarida yaratiladigan ilmiy ishlanmalarni patentlash va tijoratlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish;

-hududlarda sohaviy "fan – ta'lim – ishlab chiqarish" integratsiyalashuvini ixtirochilar, innovatorlar, biznes-jamoalar, ta'lim va ilm yoshlariga maxsus axborotlar bazasi, boshqa axborot resurslardan foydalanishni o'rgatuvchi konferentsiyalar, ta'lim seminarlari, trening va davra suhbatlarini

o'tkazish xizmatlarini ko'rsatuvchi axborot maydonchalari yaratilishida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari rolini oshirish kabi masalalar aniq belgilab berildi [3].

Umuman olganda, intellektual mulk sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha quyidagi kesimda shug'ullanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

- oliy ta'lim bosqichi (bakalavr);
- oliy ta'lim bosqichi (magistratura va doktorantura);
- patent vakillari va yuriskonsultantlar;
- vakolatli davlat organlari (aloqa, matbuot, fan, ta'lim idoralari);
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar.

Shu o'rinda jamiyatda intellektual mulkka hurmat ruhini shakllantirishda quyidagi sektorlar muhim o'ringa ega ekanligini aytish lozim:

- davlat sektori (intellektual mulk bo'yicha mutasaddi davlat idoralari, vazirlik va idoralar, universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va maktablar);
- xususiy sektor (savdo uyushmalari, faoliyati intellektual mulk ob'ekti yaratishi bilan bog'liq turli korxona va kompaniyalar);
- fuqarolik jamiyati ishtirokchilari (nodavlat notijorat tashkilotlari, turli ko'rinishdagi jamoat birlashmalari va uyushmalar);
- OAV (gazeta, televideniya, bosma nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar).

XULOSA

Intellektual mulk bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish va uni samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

1.Respublika oliy ta'lim muassasalarida patentshunoslik va intellektual mulk bo'yicha tegishli o'quv dasturlarini joriy etish nuqtai-nazaridan davlat ta'lim standartlarini qaytadan ko'rib chiqish, natijasi yuzasidan tegishli (yoki barcha) oliy ta'lim muassasalarida intellektual mulk bo'yicha maxsus dars soatlarini joriy etish;

2.Respublikamizning yetakchi va ilg'or oliy ta'lim muassasalarida transfer texnologiyalari markazlarini yo'lga qo'yish;

3.Oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilayotgan turli ishlanma va ixtirolarni tijoratlashtirish jarayoniga joriy etishga yirik tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilish;

4.Iqtisodiy sektorda intellektual mulkni o'rnini oshirish bo'yicha Hukumat darajasida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Shu bilan birga, kelgusida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti bilan hamkorlikda BIMT akademiyasining onlayn kurslarini bosqichma-bosqich tarzda o'zbek tiliga moslashtirilgan platformada joriy etish, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ul xodimlari hamda sudbyalarni ham ushbu yo'nalishdagi huquqiy bilimlarini oshirib borish rejalashtirilgan. Albatta, ushbu rejalashtirilgan ishlardan asosiy maqsad muallif va patent egalarining huquq hamda manfaatlarini himoya qilish hamda intellektual mulk ob'ektlarini amaliyotda keng joriy etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.wipo.int/enforcement/en/awareness-raising/>
2. <https://www.wipo.int/enforcement/en/ace/>
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2021 й., 07/21/4965/0074-сон.